


XII. DEMOGRAFIK HOLAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning 1 yanvar holatiga viloyat doimiy aholisining soni 1 443,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 32,9 ming kishiga yoki 102,3 foizga ko'paydi. Shundan, 675,3 ming kishi shahar joylarida (jami aholi sonining 46,8 %) va 768,1 ming kishi qishloq joylarida (53,2 %) istiqomat qiladi.

Jizzax viloyatining hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2022 yilning 1 yanvar holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami qishloq	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Jizzax viloyati	1 443,4	675,3	768,1	102,3	103,3	101,3	100,0	100,0	100,0
<i>shahar:</i>									
Jizzax	185,2	185,2	-	102,6	102,6	-	12,8	27,4	-
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	47,3	16,3	31,0	101,7	101,8	101,6	3,3	2,4	4,0
Baxmal	163,2	44,2	119,0	102,4	102,6	102,4	11,3	6,5	15,5
G'allaorol	179,1	62,7	116,4	102,3	102,0	102,5	12,4	9,3	15,2
Sharof Rashidov	232,3	91,8	140,5	102,7	102,6	102,8	16,0	13,6	18,2
Do'stlik	67,7	28,6	39,1	101,8	101,4	102,0	4,7	4,3	5,1
Zomin	171,3	81,5	89,8	102,6	102,7	102,5	11,9	12,1	11,7
Zarbdor	90,4	50,1	40,3	102,5	102,4	102,8	6,3	7,4	5,2
Zafarobod	51,6	23,5	28,1	102,2	101,7	102,6	3,6	3,5	3,7
Mirzacho'l	53,5	29,9	23,6	101,5	101,5	101,7	3,7	4,4	3,1
Paxtakor	77,5	37,6	39,9	102,4	101,7	103,0	5,4	5,6	5,2
Forish	95,3	17,7	77,6	101,6	101,9	101,5	6,6	2,6	10,1
Yangiobod	29,0	6,2	22,8	101,4	102,4	101,1	2,0	0,9	3,0

Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da
(2022 yil 1 yanvar holatiga)




Yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha aholining
tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2020 yil	2021 yil	2020 yil	2021 yil
Tug'ilganlar	38 118	41 291	27,3	28,9
Vafot etganlar	6 021	5 930	4,3	4,2
<i>shu jumladan:</i>				
bir yoshgacha bolalar	329	366	8,6	8,7
Nikohlar, mingta	13 929	13 319	10,0	9,3
Ajralishlar, mingta	1 068	1 279	0,8	0,9

Tug'ilish. 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 41 291 kishini tashkil etdi va 2020 yilning shu davriga (38 118 kishi) nisbatan 3 173 kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 28,9 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Jizzax shaharda (29,3 promillegacha), Zomin (29,2 promillegacha), Paxtakor (25,1 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti
2021 yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)




O‘lim. 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 5 930 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (6 021 kishi) nisbatan minus 91 kishiga kamaydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil qildi (2020 yil yanvar-dekabrda 4,3 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyentining sezilarli o‘sishi Do‘stlik (3,4 dan 3,8 promillegacha), Mirzacho‘l (3,0 dan 3,5 promillegacha), Zomin (4,3 dan 4,6 promillegacha) hissasiga to‘g‘ri keladi.


O‘lim darajasining eng past ko‘rsatkichi Zarbdor (3,9 promille), Paxtakor (3,7) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Hududlar kesimida o‘lganlar soni va koeffitsiyenti
2021 yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)



O'lganlar umumiy sonidan 49,3 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,8 foizi – o'sma kasalliklaridan, 8,9 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 5,0 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 9,8 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 2,4 foizi – infeksiyon va parazitlar kasalliklaridan, 15,8 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 366 nafar bir yoshgacha bolalar o'limi qayd etilgan. Go'daklar o'limi koeffitsiyenti 8,7 promilleni (2020 yil yanvar-dekabrda 8,6 promille bo'lgan) tashkil qildi.

Go'daklar o'limining yuqori ko'rsatkichlari (har 1 000 tirik tug'ilganga nisbatan promille), Zomin (14,7) va Mirzacho'l (7,9) tumanlarida kuzatildi.

Bir yoshgacha o'lgan bolalarning umumiy sonidan 52,7 foizi perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 33,1 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 4,9 foizi – tug'ma anomaliyalardan, 1,1 foizi – infeksiyon va parazit kasalliklaridan, 2,5 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 1,1 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan va 4,6 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Nikohlar va ajralishlar. 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 13 319 ta nikohlar va 1 279 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,3 (2020 yilning yanvar-dekabrda 10,0 bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 ni (2020 yilning yanvar-dekabrda 0,8 bo‘lgan) tashkil etgan.




Tuzilgan nikohlar soni 2021 yilning mos davriga nisbatan ayrim hududlarda sezilarli ko‘payish kuzatilgan. Bunda eng yuqori ko‘payish sur‘ati Jizzax shahrida (111,1 %), Forish (109,9 %) Zomin (107,6 %), va Paxtakor (102,0 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

**Hududlarda yanvar-dekabr oylarida tuzilgan nikohlar
va nikohdan ajralishlar soni**

(kishida)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>
Jizzax viloyati	13 929	13 319	1 068	1 279
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 556	1 729	188	218
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	433	390	41	43
Baxmal	1 825	1 536	79	123
G'allaorol	1 889	1 742	139	173
Sharof Rashidov	2 451	2 225	162	174
Do'stlik	628	513	44	51
Zomin	1 572	1 691	126	124
Zarbdor	898	838	77	85
Zafarobod	531	429	39	56
Mirzacho'l	398	395	34	46
Paxtakor	745	760	54	86
Forish	746	820	49	71
Yangiobod	257	251	36	29

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti
(2021 yil yanvar-dekabr)**



Ajrimlar sonini 2020 yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, yuqori o'sish sur'ati Paxtakor (159,2), Baxmal (155,7), Forish (144,9), Zafarobod (143,6), Mirzacho'1 (135,3) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'lishi soni va koeffitsiyenti

(kishida)

	<i>Kishi soni</i>		<i>1 000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>
Jizzax viloyati	32 097	35 361	23,0	24,7
<i>shahar:</i>				
Jizzax	3 231	4 772	18,1	26,1
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	927	1 003	20,0	21,4
Baxmal	4 246	4 577	26,9	28,4
G'allaorol	4 324	4 644	24,9	26,2
Sharof Rashidov	5 642	5 311	25,3	23,1
Do'stlik	1 303	1 436	19,7	21,4
Zomin	4 110	4 601	24,9	27,2
Zarbdor	2 283	2 383	26,2	26,7
Zafarobod	1074	1 192	21,4	23,3
Mirzacho'l	932	959	17,9	18,0
Paxtakor	1 565	1 959	20,9	25,6
Forish	1 862	1 983	20,0	21,0
Yangiobod	598	541	21,1	18,7

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8 993 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 11 490 kishi tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 2 497 kishi tashkil etgan, 2020 yilning mos davrida minus 3 641 kishi bo'lgan.

Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>
Jizzax viloyati	7 583	8 993	11 224	11 490	-3 641	-2 497
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1 765	1 947	1 927	2 087	-162	-140
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	259	258	525	484	-266	-226
Baxmal	355	433	1 166	1 192	-811	-759
G'allaorol	442	492	1 168	1 093	-726	-601
Sharof Rashidov	1 748	2 265	1 579	1 453	169	812
Do'stlik	536	474	687	727	-151	-253
Zomin	190	681	923	894	-733	-213
Zarbdor	575	572	630	717	-55	-145
Zafarobod	190	402	535	508	-345	-106
Mirzacho'l	553	425	463	515	90	-90
Paxtakor	571	608	716	796	-145	-188
Forish	279	291	726	773	-447	-482
Yangiobod	120	145	179	251	-59	-106

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 759 kishi), G'allaorol (minus 601), va Forish (minus 482) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldos Sharof Rashidov tumani (812 kishi) kuzatildi.